

5. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Янгидан классификатор асосида қайта ишланган ва тўлдирилган нашри. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013, 334-335-б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –М.: 1981, 256-б.
7. Раҳматуллаев Ш. “Ўзбек тилининг фразеологик луғати” –Т.: 1978, 456-б.
8. Хошимов Ў. Нур борки, соя бор. Роман. –Т.: 2018, 256-б.

РЕЗЮМЕ

Мақолада бadiий матнда фразеологик полисемиянинг лисоний, стилистик тахлили асосида муайян хулосаларга келинган. Мавзунинг тадқиқ этилиши таснифланган ва муайян даражада муносабат билдирилган. Фразеологик бирликларнинг контекстда ифодалаётган маънолари, ибораларнинг кўпмаънолилиги ва маънодошлигини фарқлаш, изоҳлашга доир мисоллар асосида айрим тақлиф-мулоҳазалар баён қилинган.

РЕЗЮМЕ

Статья основана на лингвистическом, стилистическом анализе фразеологической полисемии в художественном тексте с конкретными выводами. Изучение предмета было засекречено и в определенной степени среагировало. На основе примеров из интерпретации были описаны некоторые пропозиции, дифференцирующие значения фразеологизмов в контексте, множественность и многозначность выражений.

SUMMARY

The article is based on a linguistic and stylistic analysis of phraseological polysemy in a literary text with specific conclusions. The study of the subject was classified and reacted to a certain extent. Based on the examples from the interpretation, some propositions were described that differentiate the meanings of phraseological units in the context, as well as the multiplicity and polysemy of expressions.

BELGI BILDIRUVCHI SO‘ZLARNING METAFORA HOSIL QILISHDAGI O‘RNI

(Shavkat Rahmon ijodi misolida)

D.Yunusova – o‘qituvchi

Samarqand VTXQTMOHM

Tayanch so‘zlar: metafora, leksema, tasviriy ifoda, belgi bildiruvchi so‘zlar, kognitiv, nutq, polisemantik, istiora.

Ключевые слова: метафора, лексема, художественное выражение, характерные слова, когнитивное, речь, полисемантика, аллегория.

Key words: metaphor, lexeme, figurative expression, qualitative words, cognitive, speech, polysemy, allegory.

Metaforani jiddiy va chuqur tekshirish XX asrdagina hind, xitoy faylasuf va tilshunslarining asarlarini o‘rganish evaziga amalga oshirila boshladi. Antik davr falsafasining tadqiq davri gullab-yashnagan XX asrda metafora tilning kommunikativ, nominativ, bilish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida talqin qilindi [1].

Bu vaqtda metaforani o‘rganuvchi qiyosiy nazariya J.Serl va M.Blek tomonidan jiddiy tanqidga uchradi. J.Serl metaforani ikki semantik ma’noning verbal, ya’ni metaforik ifoda va aynan bo‘lgan kontekstual qurshovning ta’sirlashuvi yoki oppozitsiyasiga bog‘liq deb ta’kidladi [2]. M.Blek esa fanda birinchilardan bo‘lib metaforani “qiyosni ifoda etuvchi emas, yuzaga keltiruvchi” sifatida ta’rifladi [3].

Metaforaning psixolingvistik tabiatini birinchi marta I.M.Sechenov o‘rgandi va inson his-tuyg‘ularining belgilarga aylanish jarayonini sof fiziologik omillar bilan asosladi [4].

O‘zbek tilida metaforalarni o‘rganishning tarixi asosan Sharq mumtoz adabiyoti va falsafa maktablari bilan uzviy bog‘liqligini atroflicha tekshirgan U.S.Qobulova metaforani adabiy istiloh deb baholaydi hamda uni o‘xshatish (tashbeh)dan “bamisoli”, “misli”, “kabi”, “singari” so‘zlarining tushib qolishi evaziga farqlaydi [5]. Metaforani istioraga ekvivalent o‘rinda qo‘yish ham ilmiy-adabiy merosimizda mavjud bo‘lib kelgan qarashlar mahsulidir. Xudusan, arab olimi Ibn Xaldun, shuningdek, Umar Rodisoniy, Rashididdin Vatvod, Qays Roziy, Atulloh Husayniy, Shayx ibn Xudoydod Taroziy, keyinchalik Fitrat singari adabiyotshunslar metaforani she’riy san’at sifatida ko‘rsatdilar [5].

Barcha tillarda kuzatilgani kabi, metaforalarni tekshirish o‘zbek tilshunosligida ham XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib o‘zining jiddiy ilmiy-tadqiqiy rivojini topdi.

O‘zbek leksikologiyasiga doir keng qirrali izlanishlar muallifi, atoqli olim M.M.Mirtojiyev metaforalarni nutq hodisasiga va til hodisasiga oid turlarga ajratadi. Nemis tilshunosligidagi metaforalarning: personifikatsiya, simvolizatsiya, allegoriya, sinesteziya deb nomlangan ko‘rinishlariga: “Nutq hodisasiga oid metaforalarning bu ko‘rinishlarini ba’zi o‘zgarishlar bilan til hodisasiga oid metaforalarga tatbiq etsa bo‘ladi. Bunda nutqning sof o‘z xususiyatidan kelib chiqqan simvolizatsiya va allegoriyalarni chiqarib tashlashga to‘g‘ri keladi. Chunki simvolizatsiya nutq kechimidagi ellipsis bilan bog‘li sodir

bo‘luvchi metaforadir. Allegoriya esa nutq kechimidagi qochirim va intonatsiya bilan bog‘li holatda yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqib, til hodisasi bo‘lgan metaforalar oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi ko‘rinishlarga bo‘linadi” deb munosabat bildiradi.

M.M.Mirtojiyevning ta’rificha, oddiy metaforani deyarli qisqargan o‘xshatish deb bo‘lmaydi. Oddiy metafora referentlarning oddiy qiyosi, o‘xshashligiga asoslansa, personifikatsiya jonsiz referentning jonli referentga o‘xshatilishiga; sinesteziya bir sezgida his qilingan referentning boshqa sezgi bilan his qilingan referentga belgilarini ongda umumlashtirib qiyoslanishiga, o‘xshatilishiga asoslanadi [6].

D.S.Xudayberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o‘xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi. Olima ularni matnning pretsedent shakllari sifatida baholaydi [7].

Metafora boshqa badiiy tasvir vositalariga qaraganda ancha faol bo‘lganligi sababli xassos shoir Shavkat Rahmon she’riyatining bu qadar jozibali bo‘lishida metaforalar va ularni hosil qiluvchi leksik-grammatik birliklarning ifoda xususiyatini o‘rganish, metaforaning yondosh hodisalarga munosabatini, ifodalovchi vositalarning o‘rni, ahamiyati va darajasini aniqlash zarurati mavjud. Shavkat Rahmon she’riyatida belgi bildiruvchi, harakatni ifodalovchi so‘zlarga qaraganda metafora hosil qilishida ot so‘z turkumi kammahsul hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da bu borada shoirning metafora yaratish mahorati, mavjudlaridan foydalanish uslubi ba’zan boshqalarnikidan ancha farq qiladi:

// **Oq** sukunat portlar saharda,

Kun nurida yonib, yaraqlab,
chopib kirar **sovuq** shaharga
yalangoyoq yashil daraxtlar.

Mazkur misralarda ajratib ko‘rsatilgan ikki o‘rinda metafora ishtirok etmoqda. Bu o‘rinda “sovuq” so‘ziga alohida urg‘u berish lozim. Chunki kontekstdan tashqarida sovuq shahar o‘z ma’nosida haroratning nihoyatda pastligini ifodalashi ham mumkin. Ammo bandda “yashil daraxtlar”, “kun nurida yonib yaraqlab” birikmalari sovuq so‘zining metaforik ma’no ifodalab kelayotganini bildiradi.

Quyidagi misralarda qo‘llanilgan asov so‘zi esa soyga

nisbatan ko'chma, o'xshatish ma'nosida kelmoqda:

//Unutganim yo'qdir hali
o'rikzorni, **asov** soyni,
soy bo'yida ko'zdan xoli
baqaterak o'sgan joyni.//

Boshqa bir she'rda asov belgi bildiruvchi leksemasi mavhum ot oldidan kelib boshqa bir metaforik ma'no ifodalamoqda:

//**Asov** ko'ngil...
ergashar andom,
qadim yo'ldan qayga yetaklar.
Qorong'ilik quyular qandoq,
qandoq titrar edi chechaklar.//

Asov so'zi soyga nisbatan qo'llanganda ham otga nisbatan qo'llanilgan jilovlab bo'lmaydigan, to'sib bo'lmaydigan kabi o'xshashroq ma'nolarni ifodalaydi. Biroq shoir uni ko'ngilga nisbatan qo'llaganda butunlay yangicha ma'no, she'rga o'zgacha mazmun bag'ishlab turibdi. Bu oshiq ko'ngilning holatini ro'y-rost ifodalab turibdi.

Shavkat Rahmon uchun she'r umrining, tiriklikning ma'no-mazmuniga aylangan edi. Uning dard-u armonlari, iztiroblari xalqning dardi, millatning dardi bilan, jamiyatning muammolari bilan chambarchas bog'lanib ketgandi. She'rda yorug' so'zi boshqa bir metaforik ma'noda qo'llanilmoqda:

//Yashamog'im zarur
har daqiqani
g'azab bilan, sevgi bilan to'ldirib,
dunyodagi barcha qora narsani
yorug' lahzalarda o'ldirib.//

Tahlil davomida Shavkat Rahmon tilimizdagi so'zlarni o'quvchi kutmagan so'z bilan qo'llab, yangidan-yangi ma'nolarda qo'llamoqda. Masalan, porloq so'zi ham kelajak, xotira so'zlari bilan metaforik ma'no hosil qilar edi, quyidagi bandda bu so'z gullarga nisbatan qo'llanilib yangi ko'chma ma'noni ifodalamoqda:

//Ishon, odam, bahorga ishon,
qara, go'dak kabi beg'ubor —
minginchi bor olovday **porloq**
gullarini ko'rsatar bahor.//

“Porloq” sifati “gullar” turdosh otiga bog'langandagina shakliy o'xshashlik ma'nosi orqali yangi metaforik ma'nolar hosil qilmoqda.

Shoir ijodida gullarga nisbatan porloq so'zi ko'chma ma'noda qo'llangani bizga ma'lum, ammo yoniq so'zining metaforik ma'noda boshqa so'zlar bilan kelishi ham odatiy hol. Quyidagi misralarda yoniq so'zi gullar so'zi bilan birga qo'llanib, o'quvchida yangi taassurotlar hosil qilmoqda:

//Tog'lar tiniq qorini berar,
yashil vodiy — **yoniq** gullarin,
kechalarning bag'rini yoqdim,
mazaxladim sassiq ko'llarni.//

Kuzatishlar Shavkat Rahmon qo'llagan aksariyat belgi bildiruvchi metaforalar asosdan anglashilgan ma'noga, belgi asosidagi o'xshashlikka tayanmay, ot — metaforalar kabi shakliy o'xshashlikka aloqadordek taassurot qoldiradi: tabiat unsurlarlarining, garchi inson kabi bo'lmasa-da tirik ekanligi ilmiy tasavvurlar orqali ma'lum, biroq shoir tomonidan suvga nisbatan tirik so'zning qo'llanilishi she'rda yangi metaforik ma'noni hosil qilmoqda:

//**Tirik** suvman — gajir, o'ynoqi,
kunlar uxlar quchoqlarimda,
bekor boqmas hamisha maftun
daraxtlar-u o't-giyohlar ham.//

O'z xususiyatiga ko'ra suv tabiatni jonlantiradi, biroq

Adabiyotlar

1. Аристотель. Поэтика. -М.: 1984.
2. Серль Дж. Метафора // Теория метафоры. -М.: “Прогресс”, 1990.
3. Блэк М. Метафора // Теория метафоры. -М.: “Прогресс”, 1990.
4. Сеченов И.М. Избранные философские и психологические произведения. -М.: “Огиз”, 1947.
5. Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (Ўзбек халқ топишмоқлари мисолида). Фил.фан.ном. илмий дар. олиш учун тақдим этилган диссертация. -Т., 2007.

uning o'zi jonli yoki tirik ekanligi haqida aksariyat o'quvchida, olimlardan tashqari tasavvur mavjud emas, shuning uchun she'rda “tirik suvman” deya qo'llanilishi odatiy holat emas.

Kontekstda odatda sovuq, iliq so'zlari bir qancha ko'chma ma'nolarni ifodalab keladi, shunday odatiy o'xshatish Sh. Rahmon ijodida ham uchraydi:

//Juda zarur sahardan boshlab
ko'chalarni suyib bosmog'ing,
qotib qolgan **sovuq** yuzlarga
iliq tabassumlar osmog'ing.//

Belgi bildiruvchi so'zlar, asosan, predmetni ifodalovchi so'zlarda oldin kelib aniqlovchi vazifasida keladi. Ba'zan sifat so'z turkumiga doir ayrim so'zlar harakatni ifodalovchi so'zlar bilan bog'langanda holatni bildiradi. Quyida qattiq so'zi ko'chma ma'noda qo'llanilgan:

//Uncha quv emasdi shekilli, faqat
ko'zlari g'alati kulib turardi,
o'zini xotirjam tutardi, ammo
negadir yuragi **qattiq** urardi.//

Aslida qattiq so'zi yurak urishining ovozigga nisbatan qo'llanilganda baland ma'nosini anglatadi, yurak qattiq yoki yumshoq urishi kabi ifodalar nutqda uslubiy g'alizlik hisoblanadi.

Ayrim salbiy ma'noni ifodalovchi so'zlar ham nutqda ba'zan ko'chma ma'nolarda qo'llanadi. Belgi-xususiyatni ifodalovchi “dag'al” so'zi quyidagi bandda vaqtini ifodalovchi so'zlar bilan birga qo'llangan va yangi metaforik ma'no hosil qilmoqda:

//Men sezmay qolibman, o'ynoqi ko'zi
yurakning tubiga borib yetibdi,
jarangdor va sirli kulgisin, ayyor
dag'al kunlarimga osib ketibdi.//

Og'ir kunlar, yomon kunlar, hatto qora kunlar kabi ko'chma ma'nolar nutq jarayonida tez-tez uchraydi, biroq dag'al so'zining kunga nisbatan qo'llanilishi no'anaviy yondashuvdir. Bu shoir tomonidan foydalanilgan yangi metaforadir.

Til vositalaridan bunday unumli foydalanish, shoir ijodida boshqa asarlarda uchramagan nodir o'xshatishlarni sodir qiladi. Masalan, er yigit so'z birikmasida metafora bor deb bo'lmaydi, shunchaki, odatiy sifatlovchi-sifatlanmish munosabati, ammo er so'zining qizga nisbatan qo'llanilish — bu yangi nutqiy va uslubiy hodisadir. Buni metafora deb hisoblash mumkin:

//Bormi er yigitlar,
bormi **er** qizlar,
bormi gul bag'ringda **jo'mard** nolalar,
bormi bul tufroqda o'zligin izlab,
osmon-u falakka yetgan bolalar.//

Bahor tasviriga bag'ishlangan quyidagi she'rda qo'llanilgan tasviriy ifodalar orasida rang ifodalovchi safsar va oq sifatlari yangi metaforik ma'no hosil qilmoqda:

Endi **safsar** kechalarda **oq**
mash'alalar tutib ulug'vor
kengliklarda kezar chiroyli
kunduzlarni axtarib bahor [8].

Odatda bahorni tasvirlaganda ijodkorlar tomonidan oq belgi ifodalovchi semasi faol qo'llaniladi, biroq safsar so'zining kechaga nisbatan qo'llanilishi ham Shavkat Rahmonning yangicha tasavvurini aks ettirgan. Umuman olganda shoir ijodida belgi bildiruvchi so'zlarning metafora hosil qilishdagi ishtiroki faol ekanligi, qolaversa, muallif tomonidan tanlangan va mahorat bilan qo'llangan metaforalar o'ziga xos, takrorlanmas ekanligini ta'kidlash lozim.

6. Миртожиев. М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: “Mumtoz soʻz”, 2010.
7. Худайберганаева Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Докторлик диссертацияси автореферати. –Т.: 2015, 18-б.
8. Шавкат Раҳмон Абдиқат оралаб. Сайланма. –Тошкент: 2012, 258-б.

РЕЗЮМЕ

Мақолада белгиланган билдирувчи сўзларнинг метафора ҳосил қилишдаги ўрни таҳлил қилинган. Шунингдек, Шавкат Раҳмон ижодида белгиланган билдирувчи метафораларнинг ҳосил бўлиш йўллари, тил воситаларидан унумли фойдаланиш имкониятлари ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В статье проанализировано место характерных слов, образующих метафору. А также, изучены способы образования характерных метафор в творчестве Шавката Рахмона, возможности рационального применения языковых средств.

SUMMARY

The article analyzes the role of qualitative words in the formation of metaphors. Also, the ways of formation of metaphors expressing the sign, the possibilities of effective use of language tools were studied, in the works of Shavkat Rahmon.

Адебиётта

КЕЎИЛ САНДЫҒЫНАН ЗЕР ШАШҚАН ШАЙЫР

(Т.Мәтмуратовтың өмирі хәм дәретиўшилиги)

К.Алламбергенов – *филология илимлериниң докторы, профессор*

Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: Т.Матмуратов, лирик ва фалсафий шоир, ўғит-насихат, дидактик лирика, инсонпарварлик, фалсафий-этик лирика, лирик қахрамон, муаллиф образи, пейзаж лирикаси, публицистизм, лиро-эпик поэма, лиро-драматик поэма: «Яхшилик саройи», «Яхши одам юраги»

Ключевые слова: Т.Матмуратов, лирический поэт философ, нравоучение, дидактическая лирика, гуманизм, этико-философская лирика, лирический герой, образ автора, пейзажная лирика и публицистизм, лиро-эпическая поэма, лиро-драматическая поэма: «Жаксылық сарайы», «Жаксы адамның жүреги».

Key words: T.Matmuratov, lyricist and philosophical poet, morality, didactic lyrics, humanity, philosophical-aesthetic-lyrics, lyric hero, author's character, landscape lyrics, publicism, lyric-epic poem, «Yahshilik saroy» (Palace of kindness), «Yahshi odam yuragi» (Heart of kingman).

*Бахыттың қуяшын парлатып кетиң,
Өмирдің жұлдызын жайнатып кетиң,
Мәңгилик естелик орнатып кетиң,
Мәңгилик уйқыға кетпестен бұрын.*

Өзиниң бир қосығында усылайынша жазғанындай, XX әсир карақалпақ әдебиятының көрнекли ўәкиллериниң бири Төлепберген Мәтмуратов, ҳақыйқатында да, әпиўайы, бирақ үлкен адамгершилиқ кәсийетлери менен де, жоқары адамгершиликти, ар-хүждан, жаксылықты, сап мухаббатты жырлайтуғын жыллы лиризмге толы, нәзик сезимтал поэзиясы менен де тирилигинде өзине мәңгилик естелик қалдырып кеткен шын мәнисиндеги әдебий тулга, ҳақыйқый талант ийеси, үлкен ҳәриплер менен жазыўға ылайық әжайып инсан болды. Оның бул инсанийлық, дәретиўшилиқ сыпатлары ўақтында заманласларын да қатты сүйсindirди. Мәселен, Қарақалпақстан Халық жазыўшысы Ш.Сейтов ол ҳаққында оның «Жаксылық сарайы» томламына жазған алғы сөзинде «Сен көз жасындай мөлдири мухаббаттың, таңғы шықтай таза хүжданның, асқар таўдай жоқары адамгершиликтиң, қара бастың ғамы ушын емес, пүткил адамзаттың ийгилигине бағышланған нандай ҳадал мийнеттиң мақпал даўысы, бәлент лапызлы жыршысы едиң» [8:3] деп еске түсирсе, профессор С.Баҳадырова «ол әдебиятта қайталанбайтуғын ҳақыйқый шайыр, ҳақыйқый инсан еди», «оның өмир жолы да, өзи де әпиўайы, тек ғана оның қосықлары әпиўайы емес еди...» [2:108] деп жазады. Бул пикирлерди белгили илимпаз Т.Мәмбетниязовтың изертлеўлери де тастыйықлап турады. Илимпаз өз изертлеўлеринде шайыр өзи өмирде қандай жаксы инсан болса, әдебий-көркем дәретиўшилиқ мийнетте де жаксылықтың әжайып жыршысы болғанлығын айрықша атап өтеди [6:111-112; 7:20-52].

Шайырдың өзиниң де, поэзиясының да усындай бир әжайып дүнья екенлигин ўақтында дурыс аңлай билген М.Нурмухаммедов [10:32] шайыр поэзиясының дәслепки дәўирлеринде-ақ бул поэзияның арнаўлы изертлеўге турарлық екенлигин атап өткен еди. Ўақтында С.Ахметов [1:125-128], Қ.Султанов [11:371-375], Қ.Камалов [5:11-12] усаған илимпазлар да оның дәретиўшилигине айрықша баҳа берди. 2000-

жыллардың басында болса жас илимпаз Э.Ешнйазова [4] шайыр поэзиясындағы шеберлик мәселеси бойынша арнаўлы илим изертлеў жумысын жуўмақласа, П.Дабыловтың [3] 2018-жылы жақланған диссертациясында шайыр поэзиясындағы лирик қахарман образының жаратылыў мәселеси қарастырылды.

Ҳақыйқатында да, Т.Мәтмуратов 60-жыллардың басында өз қатарлы қәлемлеслери Ш.Сейтов, У.Хожаназаров, К.Рахманов, Т.Сәрсенбаев, У.Пиржановлар менен бирликте нағыз ҳадалый инсан жүрегин тереңнен ашып беретутын, өмирдің мазмунын бийик ақыл-парасат пенен сәўлелендиретутын эстетикалық сыпатлары мол лирикалары менен миллий поэзиямызға еркин хәм батыл түрде кирип келди. Оның гейпара қәлемлеслери соңынан поэзияны қойып, ямаса лирика менен көркем прозаны қатар алып барса да (Ш.Сейтов, К.Рахманов, У.Пиржанов), ал, Т.Мәтмуратов тийкарынан поэзия жолына садық болып, лирика тили менен «Жаксылық сарайын» салды. «Жаксы адамның жүреги»ниң сөз бенен сүўретин сызып оның ең жиңишке қан тамырларына шекем кирип бара алған, қосықлар, поэмалар дәретти. Өйткени, оның аталған лиро-эпикалық шығармалары карақалпақ поэмашылығында айрықша жаңаша поэтикалық өзіншеліклердин бетин ашты. Лирикалары болса мың сан жүреклерди жаўлап алып, лирикалық қахарманлардың ишки руўхый дүньясының ҳадаллығы, меҳирбанлығы, сап адамгершилиги, ойшаңлығы, бийик ақыл-парасатлығы сыяқлы ең ағла унамлы кәсийетлерин сәўлелендирди. Әсиресе, оның пүткил поэтикалық жолы шығыс лирикасының терең гуманизм хәм бай пикир дүньясына қурылған ақыл-нәсият, этико-философиялық, дидактикалық сыпатларының жүдә зор екенлиги менен ажыралып турады.

Мине, әдебиятымызда усындай белгили орны бар, талантлы әжайып шайыр Т.Мәтмуратов 1939-жылы Қараөзек районында дийқан шаңарағында туўылды. Жаслайынан ата-анасынан жетим қалып, балалар үйинде тәрбияланды. Т.Мәтмуратовтың шайырлыққа, улыўма көркем дәретиўшиликке болған ықласы усы балалар үйинде тәрбияланып, оқыўшы болып оқып жүрген жылларында-ақ пайда болды. Мектепти питкериўден шайырлық жолды таңлап алғысы келип,